

## SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING SAMARALI ISTIQBOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403936>

**Z.X.Bazarov**

*“Sug‘urta va pensiya ishi” kafedrası PhD  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**F.Z.Sattorov**

*BMA magistranti*

Sug‘urta himoyasi sotuvchi va xaridor o‘rtasida ayirboshlanadigan tovar bo‘lib, u talab va taklif asosida shakllanadi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarning rivojlanishi, jahon integratsiyalashuv jarayonlariga qo‘shilishi bizni bugun jahon standartlari talablariga yaqinlashishga majbur qilmoqda. Korxonalarining moliyaviy holatini ob‘ektiv baholash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lishga qaratilgan strategiyalarni muvofiqlashtirishga qo‘yiladigan talablar ko‘paymoqda. Bu sug‘urta jarayoniga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi.

Sug‘urtada innovatsiyalarning mazmuni va mohiyati, bizning fikrimizcha innovatsiyalar nazariyasi metodologiyasiga asoslanadi va u innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalariga, qonun va qonuniyatlariga, shuningdek ularni boshqarish tamoyillarniga asoslanadi.

Sug‘urta sohasidagi innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlariga bo‘lgan mavjud yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ba‘zi olimlar ularni radikal, kombinatsion va modifikatsiyalangan innovatsiyalarga ajratadilar. Ushbu innovatsiyalar barcha turlarining umumiy xususiyati sug‘urta kabi biznes sohasining xavfliligidir. Ushbu faoliyat natijalariga ta‘sir etuvchi omillarning noaniqligi ham yuqori innovatsion risklarni keltirib chiqaradi. Sug‘urta kompaniyalarining innovatsion faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta‘sir etuvchi tashqi va ichki muhit omillar innovatsion siyosat, innovatsion risk va innovatsion faoliyat.

Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini rejalashtirish va boshqarishda axborot texnologiyalarini joriy qilish nafaqat katta va o‘zaro bog‘liq ma‘lumotlar to‘plamini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi, balki ularni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini

asoslash uchun ham ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'risidagi turli ma'lumotlarni hisobga olish, shuningdek moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Axborot hajmi, aniqlik va ishonchlilikka yuqori talablar, mijozlar va sug'urta kompaniyasining moliyaviy holatini samarali tahlil qilish zarurati – bu sug'urta biznesining avtomatlashuvini oldindan belgilab beruvchi asosiy omildir. Sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi sifat o'zgarishlari axborot tizimiga, xususan, statistik kuzatuv va hisob-kitob vositalariga, o'lis bo'linmalarining moliyaviy va buxgalteriya ma'lumotlarini birlashtirish imkoniyatlariga qo'shimcha talablarni qo'yadi.

Jahon hamjamiyatining ko'zlangan rivojlanish va farovonlikka erishishi uchun axborot texnologiyalariga (AT) bo'lgan ehtiyoji katta sur'atlar bilan ortib bormoqda. Iqtisodiy o'sishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanishi axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketgani natijasidir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin axborot oqimining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodiyotda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda ayniqsa tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va ularning samarali qo'llanilishi yotadi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari, masalan, ma'lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashinuvi, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O'zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon axborot texnologiyalari sohasida ta'lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma'lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud bo'lgan holatdagina sodir bo'ladi.

Hozirgi vaqtda —Internet sug'urta atamasi keng tarqalgan bo'lib, u tor ma'noga ega va sug'urta xizmatlarini internet orqali sotishni nazarda tutadi. Sug'urta bozorini raqamlashtirishning bir qator asosiy yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular raqamli iqtisodiyotning allaqachon o'rnatilgan terminologiyasi doirasida sug'urta faoliyatini internetlashtirish, raqamlashtirish va yakallashtirish sifatida tavsiflanishi mumkin, ularning xususiyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Sug'urta faoliyatini internetlashtirish sug'urta kompaniyalarida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ✓ sug'urta xizmatlarini internet orqali sotish;
- ✓ sug'urta da'volarini internet orqali qondirish;
- ✓ internet orqali sug'urta qildiruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plash.

### 1-Jadval

#### Sug'urta biznesini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari tavsifi<sup>1</sup>

Yo'nalish	Tavsif	Qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar	Sug'urtalovchi auditoriyasi
Internetlashtirish	Sug'urta kompaniyalarining biznes jarayonlarida internetdan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz texnologiyalar; bulutli texnologiyalar	Tashqi - sug'urta qildiruvchilar; ichki - xodimlar, sug'urta agentlari
Yakallashtirish	Sug'urtalanuvchi va sug'urta ob'ekti haqida imkon qadar kengroq ma'lumotlarni to'plash uchun alohida takliflarni ishlab chiqish	Katta ma'lumotlar; yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz ulanishlar	Tashqi - sug'urta qildiruvchilar (shu jumladan, potensial sug'urtalanuvchilar)
Raqamlashtirish	Sug'urtalovchining biznes jarayonlarida raqamli	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz ulanishlar	Ichki - xodimlar; tashqi - sug'urta qildiruvchilar

<sup>1</sup> N.A.Mavrulova: Sug'urtada axborot texnologiyalari: O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022.

	texnologiyalardan foydalanish		
--	-------------------------------	--	--

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishi tobora raqamli iqtisodiyotning sug'urta texnologiyasiga ta'sir ko'rsatadigan, ammo uning iqtisodiy mohiyatini o'zgartirmaydigan yangi texnologiyalarni joriy etishga bog'liq bo'lib bormoqda.

Raqamli texnologiyalarni sug'urta faoliyatida qo'llash natijasida:

- ✓ sug'urta faoliyati samaradorligi va rentabelligi oshadi;
  - ✓ o'zaro va tijorat sug'urtasining yaqinlashuvi (P2P sug'urtasi) amalga oshadi;
  - ✓ sug'urta munosabatlarining ijtimoiylashuviga erishiladi;
  - ✓ yangi sug'urta xizmatlari va mahsulotlari paydo bo'ladi;
  - ✓ sug'urta sohasidagi mehnat bozori o'zgaradi, ya'ni ba'zi sug'urta agentlari.
- Soha mutaxassislarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va robotlar bilan almashtirish sodir bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori. (www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz.
3. Korporativ boshqaruv kodeksi. // "Xalq so'zi", 2016 yil 11 mart.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan. www.lex.uz.
5. Karimova G. A. Qobulov XA Banklarning raqamli xizmatlari turlari va ularning ommabopligini oshirish masalalari //Интернаука: электрон. научн. журн. – 2021. – Т. 45. – №. 190. – С. 76-77.
6. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
7. Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46–54.
8. Jumaniyazov Inomjon To'rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.

9. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023

